

UDK 1(09).297.16

**KHOREZM MA'MUN ACADEMY IS AN ANCIENT SCIENTIFIC RESIDENCE IN OUR COUNTRY**

**XORAZM MA'MUN AKADEMIYASI YURTIMIZDAGI QADIMGI ILM MASKANI**

**ХОРЕЗМСКАЯ АКАДЕМИЯ МАМУН - ДРЕВНЯЯ НАУЧНАЯ РЕЗИДЕНЦИЯ В НАШЕЙ СТРАНЕ**

**Nazarov Obid Raximovich**

Guliston davlat universiteti, 120100. Sirdaryo viloyati, Guliston shahri, IV-mavze

**E-mail:**o.nazarov@mail.ru

**Abstract.** A thousand years ago, in Gurganj (Kuhna Urgench), the capital of Khorezm, the great scientific center of the East, under the direct leadership of the encyclopedist Abu Rayhan Beruni, Dar ul Hikmah and Ma'rifa were established. This university, which deals with current issues of science, continues the ancient scientific and enlightenment traditions formed in Baghdad two centuries ago, the "Bayt ul Hikma" and Central Asia, especially in Khorezm. took a worthy place in the development of science. The work of the scholars who created Darul Hikmah and Ma'rif has aroused great interest among European and Russian orientalists in the last century. European scholar Eduard Zahau, one of the Russian orientalists. S.P Tolstov, I.Y Krachkovskiy, A.Y Yakubovsky, P.G Bulgakov, acad. Y.Gulamov, I.Muminov, M.Khairullaev, A.Akhmedov and others in their researches deeply studied the activity of this scientific institution and proved that it was the Academy of Sciences of its time. This scientific institution is now called Khorezm Mamun Academy. Named "Dar ul Hikma" or "Majlisi uloma", this place of learning was not a random gathering of a group of scholars, writers and poets who wanted to glorify the Khorezmshahs. It would be wrong to look at it this way. In other words, it did not form by chance on dry land, but had its own solid ground. Mamun Academy is first of all directly connected with the scientific and enlightenment roots of ancient Khorezm in the distant past, and it was also a legitimate result of the cultural development of the early medieval Renaissance. In ancient Khorezm, interest in astronomy, mathematics and other sciences began much earlier.

**Keywords:** Canons of medicine, scientific schools, exact and natural sciences, bending, about joints, education, medicine man, pharmacist.

**Аннотация:** Тысячу лет назад в Гургандже (Кухна-Ургенч), столице Хорезма, большом научном центре Востока, под непосредственным руководством энциклопедиста Абу Райхана Беруни были основаны Дар-уль-Хикма и Марифа. Этот университет, занимающийся актуальными вопросами науки, продолжает древние научные и просветительские традиции, сложившиеся в Багдаде два столетия назад, «Байт уль Хикма» и Средней Азии, особенно в Хорезме, заняли достойное место в развитии науки. Работа ученых, создавших Даруль Хикма и Мариф, вызвала в прошлом веке большой интерес среди европейских и российских востоковедов, европейского ученого Эдуарда Захау, одного из русских востоковедов. Толстов С.П., Крачковский И.Ю., Якубовский А.Ю., Булгаков П.Г., узбекские ученые акад. Ю. Гуламов, И. Муминов, М. Хайруллаев, А. Ахмедов и другие в своих исследованиях глубоко изучили деятельность этого научного учреждения и доказали, что это была Академия наук своего времени. Это научное учреждение теперь называется Хорезмская Мамун Академия. Названное «Дар уль Хикма» или «Маджлисиулома», это место обучения не было случайным собранием группы ученых, писателей и поэтов, которые хотели прославить хорезмшахов. Было бы неправильно смотреть на это так. Другими словами, он образовался не случайно на суше, а имел собственный твердый грунт. Мамунская академия, прежде всего, напрямую связана с научными и просветительскими корнями

древнего Хорезма в далеком прошлом, а также явилась закономерным результатом культурного развития раннесредневекового Возрождения. В древнем Хорезме интерес к астрономии, математике и другим наукам начался гораздо раньше.

**Ключевые слова:** Кононы медицины, научные школы, точный и естественные науки, изгиб, о суставах, воспитание, знахирь, фармацевт

**Kirish.** Bundan ming yil muqaddam Xorazmning poytaxt shahri Gurganjda (Kuhna Urganch) ma'rifatparvar Ma'muniylar sulolasiga mansub Xorazmshoh Ali Ibn Ma'mun va Ma'mun ibn Ma'munning sa'y-harakati hamda qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning bevosita rahnamoligida Sharqning yirik ilmiy markazi "Dor ul hikma va ma'rifa" tashkil qilingan edi. Fanning dolzarb muammolari bilan shug'ullangan bu ilm dargohi shundan ikki asr avval Bag'dodda faoliyat ko'rsatgan "Bayt ul hikma" hamda O'rta Osiyo, xususan Xorazmda shakllangan qadimiy ilmiy-ma'rifiy an'analarni davom qildirib, jahon ilm-fani taraqqiyotida munosib o'rinni egalladi. "Darul hikma va ma'rif" da ijod qilgan olimlar faoliyati o'tgan asrdayoq Yevropalik va rus sharqshunos olimlarida juda katta qiziqish uyg'otdi. Yevropalik olim Eduard Zaxau, rus sharqshunoslaridan akad. S.P.Tolstov, I.Y.Krachkovskiy, A.Y.Yakubovskiy, P.G.Bulgakov, o'zbek olimlaridan akad. Y.G'ulomov, I.Mo'minov, M.Xayrullayev, A.Axmedov va boshqalar o'z tadqiqotlarida shu ilmiy dargoh faoliyatini chuqur o'rganib, uni o'z davrining Fanlar akademiyasi bo'lganligini asoslab berdilar. Bu ilmiy dargoh endilikda Xorazm Ma'mun Akademiyasi nomi bilan yuritilib kelayapti. "Dor ul hikma" yoki "Majlisi uloma" nomi bilan atalgan bu ilm maskani Xorazmshohlar shuxratini orttirish maqsadini ko'zlagan bir guruh olim, adib, shoirlarning tasodifiy yig'ini emas edi. Masalaga shu nuqtai nazardan qarash mutlaqo noto'g'ri bo'laredi. Boshqacha aytganda u quruq yerda tasodifan vujudga kelmadi, aksincha o'zining mustahkam zaminiga ega edi. Ma'mun Akademiyasi avvalo ko'hna Xorazmning uzoq o'tmishdagi ilm-ma'rifat ildizlari bilan bevosita aloqador, shuningdek u ilk o'rta asr Uyg'onish davri madaniy yuksalishining qonuniy natijasi bo'ldi. Zero ko'hna Xorazmda ayniqsa, falakiyot (astronomiya), riyoziyot (matematika) va boshqa ilmlarga bo'lgan qiziqish ancha erta vujudga kelgan edi.

#### **Tadqiqot obyekti va qo'llaniladigan metodlar**

Mintaqamiz qadimdan jahon ilm-fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan ko'plab ma'naviyat va ma'rifat maskanlari shakllangan. Ayniqsa Sharqning eng yirik ilmiy muassasasi "Baytul hikma" ("Donishmandlar uyi") arab xalifaligini poytaxti Bog'dodda, IX asr boshlarida vujudga kelib, X asr boshlarigacha faoliyat ko'rsatdi va jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo'shdi. "Baytul hikma"[1] qadim Yunonistonda Platon akademiyasidan keyin vujudga kelgan eng yirik Fanlar akademiyasi bo'lganligini endilikda dunyo olimlari alohida qayd etmoqdalar. Zero "Bayt ul hikma" jahonga ilm fanda bebaho kashfiyotlar yaratgan Muhammad al Xorazmiy, Ahmad al Farg'oniy, kabi o'nlab qomusiy ilm sohiblarini yetkazib berish bilan birga mazkur dargohning Xorazm vohasiga ham yoyilishiga shubhasiz ta'siri borligini ta'kidlab o'tish joizdir.

Bashariyat tarixida muhim o'rin tutgan Xorazm Ma'mun akademiyasining va uning izdoshlari sifatida yurtimizda fanning turli sohalarida ilm ahli ijod na'munalarini davom ettirmoqdalar. Xususan Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisga qilgan Murojaatnomasida ta'kidlaganidek, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim. Ushbu maqsad yo'lida yoshlarimiz o'z oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish – barchamiz uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur. Shundagina farzandlarimiz xalqimizning asriy orzu-umidlarini ro'yobga chiqaradigan buyuk va qudratli kuchga aylanadi"[2] degan falsafiy fikrlarni anglagan holda, mazkur akademiyada o'rta asrlarda ijod qilib, jahon ilmi tarixida chuqur iz qoldirgan qomusiy olimlarimizning benazir ilmiy merosini o'rganishni va tahlil qilishni maqsad qilib qo'yganmiz.

X asrning oxiri XI asr boshlarida faoliyat yuritgan Xorazm Ma'mun akademiyasi ana shunday ilm dargohlaridan biri hisoblangan. Bu yerda X asr oxiri XI asr boshlarida vujudga kelgan siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik tufayli ilm-fan gurkirab rivojlangan. O'sha davr hukmdorlari Ali ibn Ma'mun hamda uning ukasi Ma'mun ibn Ma'mun ilm ahliga ko'rsatgan yuksak e'tibor va homiyliги natijasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sino, Abu Sahl Masihiy, Abul Xayr Hammor, Nosir ibn Iroq singari mashhur allomalar Gurganjga (hozirgi Urganch) to'planadi. Bu erda matematika, falakiyot, kimyo, tabobat kabi fanlar bo'yicha keng ko'lamli ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi. Mahmud G'aznaviy Xorazmga bostirib kirganiga qadar Ma'mun akademiyasida jahon ilm-fani taraqqiyotiga barakali ta'sir ko'rsatgan, hamon insoniyat turmush farovonligi yuksalishiga xizmat qilib kelayotgan buyuk kashfiyotlar yaratilgan maskan hisoblanadi.

### **Olingan natijalar va ularning tahlili**

Mazkur ilm dargohida ko'plab olimlarning ijodiga e'tibor qaratsak, xususan, buyuk tabib Ibn Sino Xorazm Ma'mun akademiyasidagi faoliyati davrida astronomiya sohasida ham barakali ijod qilgan. Kimyoga oid ikkinchi kitobi "Risalat al-iksir"ni, tabobat va fiqhga oid risolalarini shu erda yozgan. Uning "Kitob ash-Shifo" asarida o'sha davr kimyogarlari zo'r berib isbotlashga uringan oddiy metallardan sun'iy usulda oltin va kumush olish haqidagi fikrlar rad etilgan. Buyuk ajdodimizning ilmiy qarashlarida evolyutsion o'zgarish sifatida qayd etilgan ushbu tushuncha Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida ham mavjud edi.

Shuningdek, o'z davrining yetuk olimi Abul Xayr Hammor [3] hamda mashhur tabib sifatida xalq orasida tanilgan Abu Sahl Masihiyning faoliyati ham g'oyat samarali bo'lgan. Ular ko'proq tabobatning nazariy va amaliy masalalari bilan shug'ullangan. Allomalarning bu yo'nalishda yaratgan bir qancha noyob asarlari izdoshlari uchun muhim qo'llanma bo'lgan.

Bundan tashqari Xorazm Ma'mun akademiyasida rivojlangan falsafiy g'oyalar zamirida Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino o'rtasidagi mashhur yozishmalar muhim o'rin tutgan. Ushbu manba Aristotel kitoblari yuzasidan Sharqning ikki buyuk allomasi savol-javoblari, ularning falsafiy dunyoqarashlari bayonidan iborat.

Mazkur yozishmalar Ibn Sino Aristotel falsafiy qarashlariga ijodiy yondashib, uni takomillashtirishga harakat qilganidan, Beruniy esa tajriba va sinovlarga asoslanib yunon donishmandi naturfalsafaning ko'pgina asossiz tomonlarini aniqlashga uringanidan dalolat beradi. Beruniy bilan Ibn Sino yozishmalari o'zlari yashab turgan olamdan boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risida ikki olim o'rtasida jiddiy fikr-mulohaza yuritilganidan guvohlik beradi. Aristotelning dunyo cheklanganligi haqidagi falsafasi hukmron davrda Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risidagi taxminlari alloma bobokalonimizning falsafiy dunyoqarashi naqadar keng bo'lganini isbotlab turibdi. Bunday yozishmalar o'sha davrda ikki olimning ilg'or ijtimoiy-falsafiy yo'nalishlar atrofida jipslashishiga zamin hozirlagan bo'lsa, bugun falsafa tarixini teranroq anglashimizda muhim manba bo'lib xizmat qilmoqda.

Eng asosiysi, X-XI asrlarda yashagan as-Saolibiyning "Latoif al-maorif" ("Ajoyib ma'lumotlar"), XII asrda yashagan as-Somoniyning "Kitob an-ansob" ("Nasablar haqida kitob"), Yoqut al-Hamaviyning "Mu'jam al-udabo" ("Adiblar qomusi") [4] kabi qator arab manbalari orqali etib kelgan ma'lumotlarga qaraganda, Xorazm Ma'mun akademiyasida badiiy ijod va adabiyotshunoslikka ham alohida e'tibor berilgan. Xorazm Ma'mun akademiyasining vujudga kelishiga sabab bo'lgan omillardan yana biri Xorazm etnosi ham qadim davrlarda, mil. avv. II mingyillik oxirlarida shakllanganligi ham muhim ahamiyat kasb etishini inobatga olish zarur. Va nihoyat akademiyaning keying faoliyati Ali ibn Ma'munning vafotidan keyin Xorazm taxtiga o'tirgan Ma'mun ibn Ma'mun (1009-1017) ham akasining siyosatini davom ettirib, zamonasining olimlariga e'tibor bilan qaraydi va ilmiy izlanishlarga keng imkoniyatlar yaratib beradi. Natijada Ma'muniylar davrida Gurganjda Matematika, astronomiya, tabobat va boshqa fanlar bo'yicha qator izlanishlar amalga oshirilgan.

Ma'muniy Xorazmshohlar davridagi ilmiy muassasani XX asr tadqiqotchilari Bag'dod, Afina, Nisibin, Gundishapur va boshqa qadimgi akademiyalar bilan solishtirib, u ham o'ziga yarasha akademiya bo'lgan, degan xulosaga kelganlar. Xullas Ma'mun akademiyasi qisqa bir muddat, ya'ni 1017 yilgacha faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, uning ilmiy mersosi asrlar osha o'z qadr-qimmatini qo'yotmay kelmoqda.

### Xulosa

Mamlakatimiz hududlarida kechgan tarix uzoq moziyni qamrab oladi. Jumladan, Amudaryo va Sirdaryo oraliqlari jahon taraqqiyot qonuniyatlariga javob bergan madaniy tarixiy o'lka bo'lib, insoniyat tamaddudining o'choqlaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston mustaqil davlat sifatida o'z o'rnini topgan istiqlol yillarida o'tkazilgan Ulug'bek, Amir Temur, Baxouddin Naqshband, Axmad Farg'oni, Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Burxoniddin Marg'inoniy, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimizning yubileyleri o'zbek xalqining insoniyat ma'naviy kamolotiga qo'shgan xissasini aks ettirib turibdi va uni butun jahon tan olmoqda.

Uyg'onish davri Yevropada XVI asr deyiladi. Osiyoda esa u IX-XII asrlardayoq boshlangan deyishga to'la asos bor. So'zimizning yorqin misoli va timsoli etib, Ma'mun akademiyasi va uning faoliyatini aytish mumkin.

Ma'muniylar akademiyasi - Xorazmda X asr oxiri, XI asr boshlarida faoliyat ko'rsatgan ilmiy muhit bo'lib, u Ma'muniylar davlati (992-1017) tarixi bilan bevosita bog'liq. Siyosiy-iqdisodiy va harbiy qudratga erishgan Xorazmshohlar davlati shohi Ali ibn Ma'mun (997-1010) dono va zukko maslaxatchilarni atrofiga yig'a boshlagan. Uning tog'asi, o'z davrining o'ta bilimdoni olimi Abu Nasr ibn Iroq; taklifi bilan 1004 yilning boshida Beruniy Gurganjga qaytib kelgan. Ikkala shaxs Yaqin va O'rta Sharqdagi ko'plab olimlarni Gurganjga taklif etishgan. Ma'mun saroyida ilm ahli uchun yaxshi sharoit yaratib berilgan [5].

Shu tariqa 1004 yildan boshlab Gurganjda "Dor ul hikma va maorif" (ba'zi bir manbalarda "Majlisi ulomo") nomini olgan ilmiy muassasa vujudga kelgan. Unda Afinadagi "Platon", Bog'doddagi "Bayt ul-hikma" akademiyasi faoliyatiga o'xshash ilmning barcha sohalarida tadqiqot va izlanishlar olib borilgan. Juda ko'p manbalar to'plangan: hind, yunon, arab olimlarining ishlari o'rganilgan, tarjimonlik ishlari bajarilgan. Al-Xorazmiy, al-Farg'oniylarning o'lmas asarlari, ilmiy ishlaridan foydalanilgan va tadqiq qilingan.

Olimlar Yunoniston, Yaqin va O'rta Sharq, Hindiston ilm-fan yutuqlarini ijodiy, tanqidiy o'rganib, uni yanada yuksak bosqichga ko'targanlar. Ularning ilmiy faoliyati, asarlari tufayli qadimiy Xorazm badiiy san'ati, adabiyoti, astronomiyasi, matematikasi, sug'orish madaniyati yutuqlari jahon tamadduni xazinasiga kirgan va butun insoniyat manfaatlariga xizmat qila boshlagan.

### Adabiyotlar ro'yxati

1. Xasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari, - T.: Adolat, 2001. -184 b.
2. Xalq so'zi, 2020 yil 30-dekabr, B.4.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bayt\\_ul-Hikmat](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bayt_ul-Hikmat)
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abulxayr\\_ibn\\_Hammor\\_Hasan\\_ibn\\_Sivor\\_ibn\\_Bobo\\_ibn\\_Bahrom\\_Xorazmiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abulxayr_ibn_Hammor_Hasan_ibn_Sivor_ibn_Bobo_ibn_Bahrom_Xorazmiy)
5. M.Matniyozov, Sotlikov A. Jaxon tarixi va madaniyatida Xorazm. Urganch.Xorazm, 1999. -120 b.

### References

1. Xasanov S. Xorazm ma'naviyati darg'alari, - T., Adolat, 2001. – 184 b.
2. Xalq so'zi, 2020 yil 30-dekabr, B.4.
3. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Bayt\\_ul-Hikmat](https://uz.wikipedia.org/wiki/Bayt_ul-Hikmat)
4. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Abulxayr\\_ibn\\_Hammor\\_Hasan\\_ibn\\_Sivor\\_ibn\\_Bobo\\_ibn\\_Bahrom\\_Xorazmiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Abulxayr_ibn_Hammor_Hasan_ibn_Sivor_ibn_Bobo_ibn_Bahrom_Xorazmiy)
5. M.Matniyozov, Sotlikov A. Jaxon tarixi va madaniyatida Xorazm. Urganch.Xorazm, 1999. -120 b.

### Muallif:

**Nazarov O. R.** - Guliston davlat universiteti, Tarix kafedrasida dotsenti, tarix fanlari nomzodi.

E-mail: o.nazarov@mail.ru